
“POLVONLARI KO‘P YURT – QUDRATLI BO‘LUR!”

Kuni-kecha Toshloq tumanida sportning kurash turi bo‘yicha “Bosh prokuror kubogi” musobaqasining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Turnir ochilishida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari hamda tuman sport ishlari mutasaddilari, yoshlar ishtirok etdi.

Musobaqada “Belbog‘li kurash” turidan 4 ta va “Milliy kurash” turidan esa 6 ta vazn toifasida jami 100 dan ziyod sportchilar ishtirok etib, yakunda g‘olib va sovrindorlar tuman prokurorining qimmatbaho sovg‘a va diplomlari bilan taqdirlandilar.

2023-04-25 09:27:04